ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-11

QOQON XONLIGI DAVRIDA KARVON YO‘LLARI ORQALI KIRIB KELGAN AN’ANA VA USLUBLARNI MUZEYLARDA AKS ETISHI

Madraximova Gulshanoy Sotiboldiyevna

Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti Milliy iftixor va harbiy vatanparvarlik kafedrasi t.f.n.,dotsent

ОТРАЖЕНИЕ В МУЗЕЯХ ТРАДИЦИЙ И СТИЛЕЙ, РАСПРОСТРАНЯВШИХСЯ ПО КАРАВАННЫМ ПУТЯМ В ПЕРИОД КАКАНСКОГО ХАНСТВА

Мадрахимова Гулшаной Сотиболдиевна

Университет военной безопасности и обороны, Hatsіональная гордость и военный патриотизм кафедры, т.ф.н., доцент

REFLECTION IN MUSEUMS OF MOMENTS AND STYLES THAT PENETRATED THROUGH CARAVANS DURING THE TIME OF THE KAGAN KHANATE

Madrakhimova Gulshanoy Sotiboldiyevna

University of Military Security and Defense National pride and military patriotism professor of the department, t.f.n., associate professor

Annotatsiya: Ushbu maqolada Qo‘qon xonligida karvon yo‘llari bo‘ylab sodir bo‘lgan madaniy almashinuvlar, jumladan, ilm-fan, san’at, tarixshunoslik, diniy ta’limotlar, me’morchilik uslublari va adabiy g‘oyalar bugungi kunda muzeylarda o‘z aksini topganлиги tahlil qilingan

Таянч иборалар: muzey ko'rgazmalari, transmadaniy, stilistik xilma-xillik, gibrid uslublar, antikvarlar,

Аннотатsia. В статье анализируется культурный обмен, происходивший в Кокандском ханстве по караванным путям, включая науку, искусство, исторические науки, религиозные учения, архитектурные стили и литературные идеи, отраженные в музеях сегодня

Ключевые слова: музейные экспозиции, транскультурное, стилистическое разнообразие, гибридные стили, древности, концепции

Abstract: This article analyzes the cultural exchange that took place in the Kokand Khanate along caravan routes, including science, art, historical studies, religious teachings, architectural styles, and literary ideas, reflected in museums today

Key words: museum exhibitions, transcultural, stylistic diversity, hybrid styles, antiquities, concepts

Kirish. Markaziy Osiyo hududida 18 – 19 yuzyilliklarda Qo‘qon xonligi siyosiy va madaniy markaz sifatida shakllanib, keng miqyosdagi xalqaro va ichki madaniy aloqalar orqali o‘z sivilizatsiyaviy salohiyatini mustahkamladi. Xonlik Hindiston, Xitoy, Eron, Buxoro, Xiva, Qashg‘ar, Rossiya bilan madaniy aloqalar olib borgan, shuningdek, ilm-fan, adabiyot va diniy ta’lim sohasi bo‘yicha ham taraqqiy etib borgan. Bu jarayonlar esa transmadaniy yo‘nalishlar tizimi sifatida ushbu davrdagi madaniy merosni muzeyshunoslik nuqtai nazaridan ham o‘rganish imkonini beradi.

Karvon yo‘llari va Ipak yo‘li orqali sodir bo‘lgan madaniy almashinuv jarayonlari, ayniqsa, Qo‘qon xonligi madaniyatining shakllanishida ustivor yo‘nalish sifatida namoyon bo‘lgan. Xususan, madaniy an’analarining mintaqalararo tarqalishi bu davrning ijtimoiy-madaniy hayotiga xilma-xillik baxsh etgan. Ipak yo‘li bo‘ylab harakat qilgan olimlar, sayyohlar, savdogar va ziyoratchilar orqali

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-11

madaniyatlar o‘rtasida axborot, uslub, g‘oyaviy qarashlar o‘zaro almashinuvga sabab bo‘lgan. Bu holat Qo‘qon xonligining amaliy san’at, me’morchilik, musiqa va yozma madaniyatida yangi shakl va ramzlar paydo bo‘lishida bevosita tasir ko‘rsatgan. Bu jarayonlar hozirgi muzey ekspozitsiyalarida ko‘p hollarda stilistik xilma-xillik va gibrid uslublarning izohlanishi orqali ifodalanadi. Ammo ularni yanada to‘liq ochib berish uchun zamonaviy ekspozitsion konseptlar, ya’ni tematik ekspozitsiyalar, muloqotga asoslangan ko‘rgazmalar, va transmilliy meros konsepsiyalariga ehtiyoj mavjud.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Mazkur muammoni o‘rganishda tarixiylik, tarixiylik, tizimlilik, analiz va sintez, kompleks yondashuv, kontent analiz, retrospektiv tahlil, qiyosiy tahlil kabi metodlaridan foydalanildi.

MUHOKAMA VA MUNOZARA. Bugungi kunda Qo‘qon davlat muzey- qo‘riqxonasidan karvon yo‘llari orqali kirib kelgan noyob osori-atiqalar ham o‘rin egallagan. Eron va Hind ustalari tomonidan yasalgan guldon-vaza, qalandar qovog‘i, fil shaklidagi quti, xumcha, oftoba, nok shaklidagi surmadon o‘z uslubi va bejirimligi bilan diqqatga sazovordir. Espozitsiyadan o‘rin egallagan chinni laganlar, likopcha, chilim, choy idishlari yorqin ranglarda va nafis bo‘yoqlarda ifodalanganligi bilan ko‘zni quvontiradi [1].

Karvon yo‘llari orqali kirib kelgan an’na va uslublar O‘zbekiston, xususan, Qo‘qon xonligi tarixida o‘ziga xos sivilizatsiyaviy ahamiyat kasb etgan. Aynan karvon yo‘llari orqali ilmiy maktablar, diniy ta’lim tizimi va adabiy-estetik qarashlar o‘zaro integratsiyalashgan.

Karvon yo‘llarining tarixiy – madaniy kontekstdagi rolini o‘rganilganda, Qo‘qon xonliginung “hududidan o‘tuvchi karvon yo‘llari nafaqat savdo vositasi, balki tafakkur shakllantiruvchi madaniy arteriya vazifasini bajarganligini” aytish joiz. “Bu yo‘llar orqali Hindiston, Xitoy va Eron adabiyoti, Qur’on tafsirchiligining yangi namunalari, tasavvufiy risolalar Qo‘qon kutubxonalariga kirib kelgan”.

Qo‘qon xonligining Hindiston bilan o‘zaro madaniy aloqalar orqali Hindistondan ilm-fan, adabiyot, musiqiy asarlari kirib kelgan. Hindistonning turli shaharlari, jumladan, Delhi va Lahor, Qo‘qon xonligi uchun ilm-fan va san’at markazlari sifatida muhim rol o‘ynagan. Hindiston bilan madaniy aloqalar nafaqat ilmiy sohada, balki musiqa va raqs san’ati sohasida ham rivojlangan. Hind san’atining elementlari, masalan, rassomlik va musiqaning ayrim turlari, Qo‘qon xonligi madaniyatiga kirib borgan. Shuningdek, Afg‘oniston bilan madaniy aloqalar ham mavjud bo‘lgan. Bu davlatlar bilan madaniy aloqalar orqali Qo‘qonliklar yangi san’at turlarini o‘zlashtirgan. Shuni alohida ta’kidlash joizki, Hindiston bilan O‘rta Osiyo xonliklari jumladan, Qo‘qon xonligining elchilik munosabatlari ikki hudud xalqlari o‘rtasidagi ma’naviy-madaniy aloqalarning yo‘lga qo‘yilishida ham muhim o‘rin tutgan.

O‘rta Osiyo xonliklarining Sharqiy Turkiston va Xitoy bilan bevosita chegaralari Qo‘qon xonligi hududiga to‘g‘ri kelgan. Shu jihatdan O‘rta Osiyoning bu davlatlar bilan madaniy aloqalarini, asosan, Qo‘qon xonligi misolida ko‘rish mumkin. Ikki hudud aholisi o‘rtasidagi o‘zaro madaniy-ma’naviy almashinuv ham bir-birlarining madaniyatini boyitishga xizmat qilgan. Xususan, Qo‘qon xonligi me’morchiligida, “qashqarcha mo‘ri-o‘choq”, “qashqarcha ravon yoki ayvon”, zargarlik san’atida,“qashqarcha baldoq”, “qashqarcha zirak” Rishton kulolchiligida “chinni”, kandakorligida “qashqarcha qumg‘on” kabi yangi mahsulotlarni yaratishning uslublari o‘zlashtirilgan. O‘zbek shashmaqomlari tarkibiga “Mushvirak”, “qashqarcha rox” kabi uyg‘ur maqom kuylarining kiritilishi ikki xalqning musiqa sohasida yaqindan aloqada bo‘lganligini ko‘rsatadi [2].

Halqaro savdo yo‘li hisoblangan Bag‘dod, Hamadon, Nishopur, Marv, Omul (Chorjo‘y) Buxoro, Samarqand, Shosh, Taroz (Janbul), Kulon, (Lugovaya stansiyasi) Marki, Bolog‘osun, Siyob,

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-11

Issiqko‘lning janubiy qirg‘og‘i va Sharqiy Turkiston, Old Osiyo, Mongoliya va Xitoy bilan birgalikda Toshkent orqali o‘tganligi bois, savdo aloqalari yaxshi rivojlanganligidan dalolat beradi [3]. Toshkentlik zargarlar Qashqardan marjon, Polshadan kumush, turli rang va shakldagi shisha, firuza toshlarni sotib olib kelishgan[4].

Xonlik davrida hunarmandchilik uchun kerak bo‘ladigan ashyolar turli davlatlardan olib kelingan. Masalan Toshkentning zargar ustalari taqinchoqlar uchun kerakli bo‘lgan marjonlar – korallarni Qashqardan; munchoq-firuza – emal tosh bo‘lib, asosan Moskvadan keltirilgan turli xildagi mayda munchoqlardan ustalar maxsus o‘zlari tayyorlardilar; Xitoy shisha yoki mino – alohida emalga o‘xshash shisha bo‘lib, Xitoydan keltirilgan. Unda Xitoy tamg‘asi aks etgan (bu shishaning bahosi o‘sha davrda 1 rub 50 kop. turgan) mahsulotlardan foydalanganligi xaqida ma’lumotlar uchraydi [5].

Bugungi kunda muzeylardagi Qo‘qon xonligi davriga oid bo‘lgan ekspozitsiyalarda karvon йўллари орқали кириб келган мисдан ясалган tangalar ham saqlanadi. Mis tangalar Qo‘qon xonligida Rossiya hamda Xitoydan keltirilgan misdan ham tayyorlangan. Qo‘qon zarbxonasi ishchilari tanga zarb etishga mohir usta bo‘lganlar [6]. Bu borada olib borilgan hamkorliklar o‘zaro madaniy aloqalarni mustahkamlashga xizmat qilgan.

Xonlik davrida karvon yo‘llari orqali olib kelingan diniy va ilmiy asarlar, qo‘lyozmalar Qo‘qon madrasalarining boyishiga, shu bilan birga, mintaqaviy tafsir maktablarining shakllanishiga zamin yaratgan. Qo‘qon xonligining kutubxonalarida “Mashhad, (Eron) Hirot, Shom shaharlaridan olib kelingan hadis va fiqh risolalari saqlangan. Bu esa Ipak yo‘lining madaniy rolini chuqur tushunishga asos bo‘ladi” [7]. Bunday risolalar orasida Imom G‘azzoliy, Navoiy, Sa’diy, Hofiz, Jomiy kabi allomalarning asarlari borligi Qo‘qonda uslub va estetik idealning turli manbalardan oziqlanib shakllanganini ko‘rsatadi. Bugungi kunda Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi fondi (№ 163 raqamli) da Alisher Navoiy asarlari to‘plamiga ishlangan unvon tasvirlari ham saqlanadi.

Shuningdek, Qo‘qon davlat muzey- qo‘riqxonasining Qo‘qon xonligi davriga oid (4-5 xona) bo‘limda Buxorodan keltirilgan buyumlar ham saqlanadi. Ular orasida marmar tovoqlar esa Buxoro amirligiga qarashli Nurotada va G‘ozg‘onda tayyorlangan bo‘lib, elchilik va savdo munosabatlari bilan bu yerga kirib kelgan (devoriy vitrina) [8].

Qo‘qon xoni Norbo‘tabiy (1763–1798) va Buxoro amiri Shohmurod (1785–1800) hukmronligi davrida har ikkala davlatning hududlari kengayib, ularning jahon bozoridagi mavqei yuksala boshlagan. Buxorolik to‘quvchilar orasida qo‘qonlik savdogarlar keltirgan axsi ipagining dovrug‘i mashhur bo‘lib, Buxoro shahri guzarlaridan biri “Axsi shoyi guzari” deb nomlangan. Buxoro-Qo‘qon tashqi savdo aloqalari mavsumiy xarakterga ega bo‘lib, ular dovon oshib o‘tish, yo‘l qiyinchiliklari va masofa bilan bog‘liq holda kechgan. Buxoroga qo‘qonlik savdogarlarning karvonlari har yili ikki marta yoz va kuz oylari oxirida kelgan. Buxorodagi “Yangi Saroyi Barra” karvonsaroyi qo‘qonlik savdogarlarning to‘xtash joyi bo‘lib, u yerda keltirilgan mollar obdon tekshiruvdan o‘tkazilgandan so‘ng sotish narxi belgilangan va savdo do‘konlariga tarqatilgan[9].

Qo‘qondan Qashqarga boruvchi savdogarlar esa o‘z mollarini ijaraga olingan otlar (har bir otga 8 pud) ga yuklab, har bir ot uchun 2 – 4 tillo tangadan yo‘l haqqi to‘lagan. O‘z navbatida shuni ham qayd etish kerakki, quruqlikdagi savdo karvonlarida yuk tashishda har bir tuya uchun to‘lanadigan yo‘l haqqi o‘rtacha 1–1,5 tillo tanga bo‘lgan [10].

Qo‘qon xonligi shoir va mutafakkirlari ham Ipak yo‘li orqali kirib kelgan estetik tafakkurdan ta’sirlangan. Jumladan, Mashrab, Fazliy Namangoniy va boshqa adiblar turkiy-islomiy an’analarga erkin yondashgan, bu esa Qo‘qon adabiy maktabining shakllanishiga zamin yaratgan.“Qo‘qon adabiy

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-11

muhitida karvon yo‘llari orqali kelgan forsiy-turkiy adabiy g‘oyalar singib, mahalliy poetik tafakkurga ko‘chdi. Ayniqsa, Xuroson, Balx va Hirot adabiy muhitining ta’siri sezilarli bo‘lgan”.

Qo‘qon xonligi XVIII–XIX asrlarda Markaziy Osiyoda iqtisodiy va madaniy jihatdan faol hududlardan biri bo‘lib, bu davrda karvon yo‘llari orqali faqat mahsulotlar emas, balki ilm-fan, san’at, tarixiy ilmlar, diniy ta’limotlar, me’moriy uslublar, adabiy g‘oyalar ham almashinib borgan. Ana shu murakkab oqimlar tufayli Qo‘qon xonligi Sharq va G‘arb o‘rtasidagi vositachi madaniy markazga aylangan.

НАТИЖАЛАР. Qo‘qon xonligining karvon yo‘llari ва Ipak yo‘li tizimiga integratsiyalashuvi haqida quyidagilarni aytish joiz. “Qo‘qon xonligi hududi orqali o‘tgan karvon yo‘llari Xitoy, Hindiston, Xorazm, Buxoro va Rossiya imperiyasini bog‘lab turar edi. Bu yo‘llar orqali ilm, axloq, san’at, tibbiyot va tasavvufga oid bilimlar tarqalib, Qo‘qonda universal tafakkur muhiti shakllangan”.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, karvon yo‘llari orqali Qo‘qon xonligida madaniy, estetik, diniy va ilmiy g‘oyalar almashinuvining murakkab tizimi yuzaga kelgan. Bu jarayonlar O‘zbekistonning tarixiy madaniyati va milliy tafakkur taraqqiyotining tarkibiy qismidir. Ayniqsa, Qo‘qon madaniy fenomenini Ipak yo‘li doirasidagi global madaniyatlararo almashinuv bilan bog‘lab o‘rganish bugungi ilmiy izlanishlar uchun dolzarb yo‘nalish hisoblanadi.

Buyuk ipak yo‘li bo‘ylab yurgan karvonlar G‘arb va Sharq madaniy g‘oya va an’analarini bir-biriga etkazib beruvchi vosita vazifasini ham o‘tagan [11].

XVIII–XIX asrlarda Qo‘qon xonligi transmadaniy jarayonlarning markaziy nuqtalaridan biriga aylangan. Geosiyosiy jihatdan strategik hududda joylashgan Qo‘qon xonligi Sharq va G‘arb, Shimol va Janub o‘rtasidagi karvon savdo yo‘llari tugunida bo‘lib, uning orqali nafaqat moddiy boyliklar, balki tarixiy bilimlar, falsafiy konsepsiyalar, diniy ta’limotlar, madaniy urf-odatlar ham tarqalgan.

XULOSA. Qo‘qon xonligi tarixida karvon yo‘llari orqali uslub va qadriyatlarning almashinuvi zamonaviy o‘zbek madaniyatining shakllanishida asosiy omil bo‘lib xizmat qilgan. Bu jarayon o‘zbek xalqining ilmiy, diniy, adabiy tafakkurini jahon madaniy merosi bilan uyg‘unlashtirgan holda mintaqaviy sivilizatsiyaning yuksalishiga yo‘l ochgan.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Муҳаммад Яҳёхон Хўқандий. Худоёрхон ўрдаси. “Vodiy Media” нашриёти.2021.-184-185.
2. Ўзбекистон дипломатияси тарихи (қадимги замонлардан ҳозирги кунгача) 6-жилд.- Тошкент: «O‘zbekiston». 2019-Б.263.
3. Бекмухамедов Х.Ю. Страницы из истории Ташкента // Сборник из истории Узбекистана. Т. 146, Ташкент. 1975. стр.142.
4. М.Жалилова. Туркистонда бадиий ҳунармандчилик // Гулистон. 2001. №1. 17-бет.
5. Гейер И.Назаров И. Кустарные промыслы в Ташкенте. Тетрадь I. – Ташкент, 1903.-С.13.
6. Ходжаев А., Каримова Н., Қўлдошев Ш., Джуманиёзова Ф., Азимов Х. Ўзбекистон – Хитой муносабатлари тарихидан. –Тошкент: «Fan ziyosi» нашриёти, 2022. – Б.202.
7. Қаюмов А. Илм ва маънавият издошлари. – Тошкент: Маънавият, 2003. – Б. 128.

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

VOLUME-5, ISSUE-11

8. Дадабоев М.Я.Худоёрхон ўрдаси (Тўлдирилган қайта нашр). “Vodiy Media” nashriyoti. 2021. – Б. 163.

9. Давурова Ш. Бухоро амирлиги савдо муносабатлари тарихи (1756–1868 йиллар). Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертатsiяси автореферати. Тошкент. 2023. - Б.20-21.

10. Небольсин П.И. Очерки торговли России с странами Средней Азией (Хивой, Бухарой и Кокандом) – СПб.: 1856. – С. 10; 111.

11. Курязова Д.Т. Ўзбекистон моддий маданий меросини ўрганиш сақлаш ва музейлаштиришнинг назарий-методологик асослари.. Тарих фан. док (ДSc)…дисс. – Т: 2021. – Б.36.